**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***70230102 – Mumtoz filologiya magistratura mutaxassisligining***

# *MALAKA TALABI*

O‘zR OTFIV
Buyruq№ 277
2024 yil “01” 08

**Toshkent-2024**

**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

- Toshkent davlat sharqshunoslik universtiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil «01» 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standard. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

# MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|---|---|---|
| **1.** | **Umumiy tavsifi** | 4 |
| 1.1. | Qo‘llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | Malaka talabining qo‘llanilishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | Kasbiy faoliyatlarning tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | Kasbiy faoliyatning sohalari | 4 |
| 1.2.2. | Kasbiy faoliyatlarning obyektlari | 5 |
| 1.2.3. | Kasbiy faoliyatlarning turlari | 5 |
| 1.2.4. | Kasbiy vazifalar | 5 |
| **2.** | **Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar** | 7 |
| **3.** | **Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar** | 9 |
| **4.** | **Fanlar katalogining tuzilishi** | 9 |
| | **Bibliografik ma’lumotlar** | 11 |
| | **Kelishuv varag‘i** | 12 |

**1. Umumiy tavsifi**

***70230102 – Mumtoz filologiya*** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me’yoriy muddati 2 yil.

**1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1. Malaka talabining qo‘llanishi.**

Malaka talabi ***70230102 – Mumtoz filologiya*** magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.**

**1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari:**

***70230102 – Mumtoz filologiya*** – “Tillar” ta’lim sohasiga oid mutaxassislik bo‘lib, barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g‘arb tillarini o‘qitish, ilmiy, filologik, lingvistik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy-tadqiqot hamda ilmiy-ishlab chiqarish muassasalari va tashkilotlari; qo‘lyozma va arxiv fondlari; davlat boshqaruvi organlari; O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari; xorijiy sharq mamlakatlari bilan bog‘liq davlat tashkilotlari; turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat;

Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida sharq adabiyotshunosligi sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;

davlat va nodavlat, xususiy tashkilotlarda tarjimonlik va ish yuritishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari.

**1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

ilmiy tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

madaniyatlararo muloqot faoliyati;

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;

turli xizmatlar ko'rsatish faoliyati.

**1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

*70230102 – Mumtoz filologiya* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

sharq tillari yuzasidan birlamchi manbalarga suyangan holda, innovasion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan muammolarni aniqlay olish;

sharq tillarining amaliy hamda nazariy masalalarini yechish uchun ilmiy xulosalar va tavsiyalar berish;

tadqiqotlarda qo'llangan metodologik yondashuv tamoyillarining tadriji, etnogenez, madaniy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar masalasi va adabiy til lug'at tarkibidagi o'zgarishlar masalasi;

turkiy til tarixining rivojlanish bosqichlari, o'rta asr turkiy tilini tadqiq etishning nazariy asoslari;

yozma yodgorliklarni tadqiq etishda mumtoz adabiyotshunoslikning nazariy metodologiyasi, yondashuv usullari;

mumtoz adabiyot namunalari yuzasidan O'zbekistonda va chet ellarda olib borilgan asosiy tadqiqotlar;

o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzui bo'yicha metodlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;

ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

ilmiy jurnallarga soha bo'yicha ilmiy maqolalar tayyorlash, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish.

**Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:**

ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkillashtirish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga ma'naviy merosga muhabbat, sog'lom e'tiqodga chanqoqlik, o'zaro mehr-shafqat g'oyasini singdirish;

o'quvchilarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilish;

globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda yozma ma'naviy merosning o'rni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalarda ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha yakka tartibda suhbat o'tkazish;

milliy urf-odat va marosimlarni o'tkazishda umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlarni ochib berish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

tashkilot, korxona va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;

qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash.

**Pedagogik faoliyatda:**

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat

yuritish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy usulda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

ma'ruza matnlari va mashg'ulotlarni o'tkazish rejalarini tuzish;

yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash;

talabalar mustaqil ishini tashkiliy va o'quv-metodik ta'minlashni o'rganish;

ta'lim berishning zamonaviy hamda masofaviy shakllarini qo'llash;

tarbiyaviy ishlarni o'tkazish;

mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

**Konsalting xizmati faoliyatida:**

ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish;

mutaxassislik bo'yicha oila, gender, demografik siyosat, bandlik munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik jarayonlarga baho berish hamda jarayonlar prognozini ishlab chiqish;

sharq va g'arb tillari bo'yicha tarjima ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'rganilgan sharq va g'arb tillaridan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va

tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishni bilishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

sharq mumtoz adabiyoti namunalarining jahon adabiyoti, kishilik ma'naviy tafakkuri tarixida tutgan o'rni;

mumtoz asarlarni o'rganish bo'yicha sharqshunoslikdagi turli ilmiy konsepsiya va nazariyalar;

mumtoz asarlarni o'rganishning nazariy metodologiyasi;

asosiy chet tilidagi mutaxassislikka oid adabiyotlar va materiallar, ularning xronologik, hududiy va til xususiyatlari;

asosiy chet tilidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar va manbalarni izlash hamda ular bilan ishlash usullari;

yozma yodgorliklar tili bo'yicha sharqshunoslikdagi turli ilmiy konsepsiya va nazariyalar;

yozma yodgorliklarning adabiy til tarixida tutgan o'rni;

yozma yodgorliklarning leksik-semantik, fonetik, morfologik, sintaktik-stilistik xususiyatlari;

o'rta asrlar Sharq adabiyotida janrlar tizimi va uning tipologik xususiyatlari;

turli janrlarda yaratilgan yozma yodgorliklarning kompozision xususiyatlari;

adabiy janrlarning takomil bosqichlari;

janrlar tipologiyasi va mintaqa adabiyotida o'zaro ta'sir masalasi;

mumtoz adabiyot janrlar tizimining yuzaga kelish omillari;

mumtoz arab, fors va turkiy adabiyotlarda janrlar umumiyligi masalasi;

sharq xalqlari adabiyotida syujet yoki motivlar ko'chishining tipologik asoslari, bu jarayondagi ijodiy tafovutlar hamda o'ziga xosliklar;

O'zbekiston Respublikasi va chet ellardagi qo'lyozmalar fondlari, ularda saqlanayotgan nodir manbalar;

o'rta asrlarda yaratilgan yozma manbalarning O'zbekiston Respublikasi va chet ellardagi miqyosi va ularning manbashunoslik va matnshunoslik jihatdan ishlanganlik darajasi;

adabiy, ilmiy, tarixiy manbalarning ilmiy va amaliy ahamiyati;

qo'lyozma kitoblar yaratish texnologiyasi, kitobat san'ati;

arabiy, forsiy va turkiy tillardagi adabiy merosni tadqiq etishda mumtoz adabiyotshunoslikning asosiy tushunchalari, ta'riflari va atamalari;

arabiy, forsiy va turkiy mumtoz adabiyot namunalari yuzasidan O'zbekiston Respublikasida va chet ellarda olib borilgan asosiy tadqiqotlar;

ilmiy tadqiqot olib borish metodlari hamda ilmiy, ilmiy-tanqidiy, yig'ma matn yaratish prinsiplarini bilishi va ulardan foydalana olishi, shuningdek,

yozuv turlarini farqlash va paleografiya sohasida olgan bilimlarini ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llash;

qo'lyozma manbalar ustida ishlash;

qadimgi yozuvlarni o'qiy olish, ularda bitilgan matnlarning ilmiy nashrlarini tayyorlash;

o'rta asr mualliflarining qo'lyozmalarini o'qish;

matnlarni nashr etish texnikasi, tayanch nusxa tanlash, uni tiklash usullarini bilishi va ulardan foydalana olishi kerak.

**3. Amaliyotga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot-umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompitensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha *ilmiy amaliyot* o'tkaziladi:

**4. Fanlar katalogining tuzilishi:**

| T/r | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **Majburiy fanlar** | **1800** | **60** | **1-3** |
| 1.01 | ITM 1 04 | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | MFO'M 3 06 | Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi | 120 | 4 | 3 |
| 1.03 | MFNM1104 | Mutaxassislikning nazariy masalalari | 120 | 4 | 1 |
| 1.04 | YYT1104 | Yozma yodgorliklar tili | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | STNA12-308 | Ilk o'rta asrlar sharq tillarining nazariy asoslari (so'g'd, sanskrit va qadimgi xitoy tillari) | 240 | 8 | 2-3 |
| 1.06 | MBMS1204 | Mumtoz badiiy matn stilistikasi | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | SMA12-306 | Sharq mumtoz adabiyotshunosligi | 180 | 6 | 2-3 |
| 1.08 | MJT11-208 | Mumtoz janrlar tizimi va uslublar tipologiyasi | 240 | 8 | 1-2 |
| **2.00** | | **Tanlov fanlari** | **540** | **18** | 1-3 |
| *2.00* | | *Tanlov fanlari* | *540* | *18* | *1-3* |

| Kvalifikatsiya | | Filolog, tadqiqotchi-pedagog (sharq tillari bilan) | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3.00** | | **Ilmiy faoliyat** | **1800** | **60** | **1-4** |
| | | **HAMMASI** | **3600** | **120** | **3600** |

**Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7 Guruh T 55

OKS 01.040.01

**Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, klassik adabiyotshunoslik, klassik filologiya; klassik poetika; sharq mumtoz poetikasi; tekstologiya; badiiy talqin, tarixiy-filologik talqin, badiiy matnni talqin qilish prinsiplari; interpretatsiya, germenevtika; janrlar tipologiyasi; sharq adabiyotida traditsion obrazlar tizimi; janr va an'anaviylik; yozma yodgorliklar; toshbitiglar; epigrafika, paleografiya, numezmatika; bitiglar tili; klassik asar tilini ilmiy talqin qilish prinsiplari; tarixiy fonetika, morfo-fonologiya, morfemika, tarixiy morfologiya, tarixiy sintaksis; matn tarixi; matn stilistikasi; etimologiya; tarixiy leksikografiya; qo'lyozmalar tasnifi, nashr turlari, faksimil nashr, ilmiy-tanqidiy matn, ilmiy-akademik nashr, yig'ma matn, ilmiy transkripsiya, transleteratsiya, ilmiy-ommabop nashr, ommabop nashr, tabdil nashr, ilmiy apparat.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**

**Rektor ____________ G.Sh.Rixsiyeva**

2024-yil «_____» _____________ m.o‘.

**KELISHILGAN:**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi**

**Direktor ____________ M.Boltaboyev**

2024-yil «_____» _________ m.o‘.

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti**

**Direktor ____________ B.Abduxalimov**

2024-yil «_____» __________ m.o‘.

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**

**Rektor ______________ Sh.Sirojiddinov**

2024-yil «_____» _____________ m.o‘.

**O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

**Rektor ____________ I.Tuxtasinov**

2024-yil «_____» __________ m.o‘.